

Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. META MA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 038 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 966 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 881,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 121,4 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 670,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 143,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 13 210,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,4 %) shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 412,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 123,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 549 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 533 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 133,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga oshdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 679,1 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,0 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Sariosiyo (8 355,2 %), Sherobod (7 999,8 %), Uzun (387,9 %) va Bandixon (366,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 565 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 047,7 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. META MA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)



Chop etishga masul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A. Dusanazarov Tel: +998554518000 (7540)	Ijrochi: I. Yusupova Tel: +998554518000 (7541) e-pochta: info@surxonstat.uz	Manzil: 190108, Termiz sh. at-Termiziy ko'chasi, 7-uy,
--	---	--	--